Abstract. This article analyzes the core risks inherent in the venture financing process, the mechanisms for their mitigation, and the economic efficiency of these strategies. The venture capital market is characterized by high uncertainty, information asymmetry, agency problems, technological and market risks, as well as exit uncertainty. The study develops an integrated "risk-instrument-efficiency" model, arguing that the effectiveness of risk mitigation in venture deals must be balanced between protecting capital and supporting high-potential startups at their early stages.

Keywords: venture capital, financing, risk management, staged financing, syndication, due diligence, convertible preferred stock, term sheet, exit risk, startups, agency problem, information asymmetry.

Аннотация. This article analyzes the main risks that arise in the process of venture financing, their management mechanisms, and the economic efficiency of these mechanisms. The venture capital market is characterized by high uncertainty, information asymmetry, agency problems, technological and market risks, as well as exit uncertainty. The article develops an integrated model of "risk-instrument-efficiency", which is based on the fact that the effectiveness of risk reduction in venture transactions should be balanced not only with capital protection, but also with early-stage support for promising startups.

Ключевые слова: venture capital, financing, risk management, staged financing, syndication, due diligence, convertible preferred shares, memorandum of the main terms of the agreement, exit risk, startups, agency problem, information asymmetry.

KIRISH

Venchur moliyalashtirish innovatsion startaplar va tez o'suvchi firmalarni qo'llab-quvvatlashning muhim institutsional mexanizmlaridan biridir. Biroq aynan shu segment eng yuqori risk darajasi bilan ajralib turadi, chunki moliyalashtirilayotgan kompaniyalarda ko'pincha barqaror pul oqimi, yetuk mahsulot, ishonchli garov va uzoq tarixiy moliyaviy ko'rsatkichlar mavjud bo'lmaydi. Shu sababli venchur investor an'anaviy kreditordan farqli ravishda riskni rad etmaydi, balki uni tanlaydi, narxlaydi, bo'lib taqsimlaydi va shartnomalar orqali boshqaradi. Venchur kapital (VC) bo'yicha tadqiqotlar aynan shuni ko'rsatadiki, ushbu moliyalashtirish turi yuqori o'sish imkoniyati bilan yuqori muvaffaqiyatsizlik ehtimolini birlashtiradi.

So'nggi yillarda venchur moliyalashtirish muhiti yanada murakkablashdi. Xususan, venchur investitsiyalar hajmi uzoq muddatda sezilarli oshgani, biroq monetar sharoitlarning qat'iylashuvi, baholashlarning qayta ko'rib chiqilishi va investitsiyadan chiqish bozorlaridagi sustlik investorlar uchun yangi risklarni yuzaga keltirmoqda. AQSh Milliy venchur kapitali assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilingan "PitchBook-NVCA 2024" hisobotida



investitsiya (venchur startap loyihadan)dan chiqishlar sur'atining yetarlicha tiklanmagani va yuqori baholashlar bilan bog'liq xatarlar venchur bozorida ehtiyotkorlikni kuchaytirayotgan omil sifatida ko'rsatilgan.

Venchur moliyalashtirish jarayonida risklarni boshqarish mexanizmlarini tizimlashtirish, ularning iqtisodiy mazmuni va samaradorligini tahlil qilish hamda startap-investor munosabatida eng muhim amaliy xulosalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Venchur kapital bo'yicha klassik va zamonaviy adabiyotlar ushbu moliyalashtirish turini asosan axborot assimetriyasi va agentlik muammolari nuqtai nazaridan izohlaydi. E.Metrik va A.Yasuda venchur kapital shartnomalarida ko'p uchraydigan asosiy mexanizmlar sifatida konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlar, bosqichma-bosqich moliyalashtirish, sindikatlash, ovoz berish huquqlari va kuzatuv kengashi huquqlarini ajratadi. Ularning sharhiga ko'ra, bu instrumentlar investor kapitalini himoya qilish bilan birga, tadbirkorni rag'batlantirish va monitoring xarajatlarini pasaytirishga xizmat qiladi.

S.N.Kaplan va P.Strombergning venchur kapitalistlar investitsion memorandumlari asosidagi tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, investorlar risklarni faqat texnologiya yoki bozor noaniqligi bilan emas, balki jamoa sifati, boshqaruv salohiyati, mahsulotning bozorbopligi va investitsiyadan chiqish ehtimoli bilan ham baholaydi. Demak, venchur risklarini boshqarish moliyaviy modeldan ko'ra kengroq strategik, tashkiliy va xulqiy baholash tizimini talab qiladi.

P.Gompers boshchiligidagi mualliflar guruhining NBER tadqiqoti venchur kapitalistlar qanday qaror qabul qilishini amaliy ravishda ochib beradi. Unga ko'ra, venchur kapitalistlar bitimlarni topish, saralash, baholash, strukturalash, post-investitsion monitoring va portfel boshqaruvini tizimli ravishda olib boradi. Ayniqsa jamoa sifati, bozor salohiyati va shartnomaviy nazorat mexanizmlari qaror qabul qilishda muhim o'rin tutadi. Bu natija risklarni boshqarishning venchur jarayonida "bir martalik" emas, balki butun investitsiya sikliga singdirilgan mexanizm ekanini tasdiqlaydi.

Bosqichma-bosqich moliyalashtirish masalasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. S.Wang tadqiqotida bosqichma-bosqich moliyalashtirish (staged financing) axloqiy xavfni kamaytirish va riskni nazorat qilish vositasi sifatida tahlil qilinadi. S.Dahiya va K.Ray esa bosqichma-bosqich investitsiyalash samarali ekanini, chunki u dastlabki bosqichlarda sust natija ko'rsatgan loyihalarni to'xtatish, istiqbolli loyihalarga esa keyingi bosqichlarda ko'proq kapital yo'naltirish imkonini berishini ko'rsatadi. X.Tian tadqiqotida esa masofa va monitoring xarajatlari oshgan sari venchur investorlar ko'proq raundlarga bo'lib moliyalashtirishga moyil bo'lishi aniqlangan.

Sindikatlash bo'yicha adabiyotlar ham risklarni boshqarishda muhim xulosalar beradi. Z.Fluk, K.Garrison va S.Mayers sindikatlash keyingi bosqichdagi moliyalashtirish majburiyatini kuchaytirib, investor va tadbirkor o'rtasidagi "hold-up" muammolarini kamaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Biroq R.Nanda va M.Rods-Kropf sindikatlarda koordinatsiya friksiyalari ham paydo bo'lishi, ya'ni bir nechta investor ishtiroki ma'lumot va nazoratni yaxshilashi bilan birga qaror qabul qilishni murakkablashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Demak, sindikatlash bir vaqtning o'zida riskni tarqatish instrumenti va yangi koordinatsiya risklari manbai ham bo'lishi mumkin.

Amaliy jihatdan NVCA model huquqiy hujjatlar venchur bitimlarida keng qo'llanadigan investitsiya bitimining asosiy shartlari bayonnomasi (term sheet) va huquqiy hujjatlar orqali risklarni taqsimlashning standartlashgan mexanizmlarini taklif etadi. Ushbu hujjatlar likvidatsiya imtiyozlari, ulush kamayishiga qarshi himoya (anti-dilution), himoya qoidalari (protective provisions), kuzatuv kengashida vakillik huquqi (board rights), axborot olish huquqi (information rights) va investor roziligini talab qiluvchi muhim masalalarni tartibga soladi. Bu esa venchur bozorida risklarni boshqarish shartnomaviy standartlashuv orqali ham amalga oshirilishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola nazariy-kontseptual va analitik xarakterga ega. Unda tizimli tahlil, komparativ tahlil, kontent tahlil va institutsional yondashuv usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil venchur moliyalashtirishning butun siklini istiqbolli loyihalarni (bitimlarni) izlash va tanlash (deal sourcing), kompleks tekshiruv, investitsiya bitimining asosiy shartlari bayonnomasi, investitsion raundlar, monitoring, keyingi moliyalashtirish va investitsiyadan chiqish yagona risk boshqaruv zanjiri sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Komparativ tahlil esa ilmiy adabiyotlar va amaliy hujjatlardagi mexanizmlarni bir-biri bilan taqqoslashga xizmat qildi. Tadqiqotni "risk manbai - boshqaruv instrumenti - kutilayotgan ta'sir - samaradorlik mezonlari" mantiqiy modeli asosida shakllantirildi.

Bu model asosida venchur moliyalashtirishdagi asosiy risklar seleksiya riski, agentlik va axloqiy xavflar, monitoring riski, portfel va likvidlik riski hamda chiqish riski kabi besh guruhga ajratildi. Har bir risk guruhiga mos ravishda kompleks tekshiruv, bosqichma-bosqich moliyalashtirish, sindikatlash, shartnomaviy huquqlar hamda nazorat va diversifikatsiya instrumentlari tahlil qilindi.

Metodologik jihatdan maqolada samaradorlik ikki mezon orqali baholandi. Birinchi mezon - kapitalni himoya qilish samaradorligi, ya'ni zarar ehtimoli va zarar miqyosini kamaytirish. Ikkinchi mezon - o'sish imkoniyatini saqlab qolish samaradorligi ya'ni startapni haddan tashqari nazorat bilan bo'g'ib qo'ymasdan, uning innovatsion salohiyatini saqlash. Venchur kapitalning o'ziga xosligi aynan shu ikki mezon o'rtasidagi muvozanatda namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Venchur moliyalashtirishdagi birinchi va eng muhim risk "nomaqbul tanlov" (adverse selection) ya'ni investor sust yoki haddan tashqari optimistik loyiha bilan istiqbolli loyiha o'rtasini to'liq ajrata olmasligi. Startaplarda moliyaviy tarix, garov va uzoq operatsion tajriba yetarli bo'lmagani uchun, an'anaviy kreditlashdagi risk baholash modellari bu yerda kamroq ishlaydi. S.N.Kaplan va P.Strombergning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, venture kapitalistlar aynan shu muammoni yumshatish uchun jamoa, bozor, mahsulot va raqobat ustunligi haqidagi chuqur sifat tahliliga tayanadi.

Ikkinchi risk - bu "axloqiy xavf" (moral hazard) ya'ni mablag' jalb etilgach, tadbirkor yoki boshqaruv jamoasi investor kutgan intizomni saqlamasligi, ma'lumotni yashirishi yoki qisqa muddatli ko'rsatkichlarni manipulyatsiya qilishi mumkin. K.Yungning tadqiqoti bosqichma-bosqich moliyalashtirish ayrim sharoitlarda manipulyatsiyani kamaytirishi, ammo ayrim holatlarda aksincha qisqa muddatli "ko'rinish"ni yaxshilashga undashi mumkinligini ko'rsatadi. Bu natija risk boshqaruvi instrumentlari ham o'z navbatida ikkilamchi xatarlar tug'dirishi mumkinligini bildiradi.

Uchinchi risk - bu "monitoring va koordinatsiya riski" bo'lib, ushbu risk investor startapdan uzoqlashgan sari yoki startap murakkab texnologik sohada ishlagan sari real monitoring qimmatlashishi natijasida yuzaga kelishini anglatadi. X.Tian tadqiqoti geografik masofa katta bo'lganda bosqichma-bosqich moliyalash ko'proq qo'llanishini ko'rsatadi. Sindikatlar esa kuzatuv va ekspertizani kuchaytirsa-da, koordinatsiya xarajatlarini oshirishi mumkin.

To'rtinchi risk - bu portfel va likvidlik riski. VC fondi muvaffaqiyatsiz loyihalar ulushi yuqori bo'lishini oldindan qabul qiladi, shu sababli bir necha g'olib loyiha ya'ni muvaffaqiyatli va yuqori daromadli startap butun fond natijasini tortib ketishi kerak. Bu fond darajasida portfel diversifikatsiyasi, sektorlar va raundlar bo'yicha balans, rezerv kapital va navbatdagi investitsiya (follow-on) strategiyasining ahamiyatini oshiradi.

Beshinchi risk - bu chiqish riski. Venchur investitsiya odatda IPO, strategik sotuv yoki ikkilamchi bitim orqali monetizatsiya qilinadi. Chiqish bozorida sustlik investorning qaytishini cho'zadi va baholash xavfini kuchaytiradi. PitchBook–NVCA monitoringi investitsiyalardan chiqishlar sur'ati va baholash muammolari venture natijadorligida hal qiluvchi omil bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Kompleks tekshiruv venchur risk boshqaruvining birinchi chizig'idir. U startapning jamoasi, mahsuloti, texnologik himoyasi, bozor hajmi, raqobatchilari, huquqiy maqomi, intellektual mulk huquqlari, moliyaviy prognozlar va chiqish potensialini tekshirishni o'z ichiga oladi. P.Gompers va boshqalar qaror qabul qilishda investorlar ayniqsa jamoa va bozorni eng muhim omillar deb bilishini ko'rsatadi. Demak, kompleks tekshiruv nafaqat hujjat tekshiruvi, balki strategik saralashdir.

Ushbu mexanizmning samaradorligi yuqori, chunki u noto'g'ri loyihaga kapital ajratish ehtimolini kamaytiradi. Biroq uning cheklovi ham bor bo'lib, bu erta bosqich startaplarda ma'lumot to'liq bo'lmasligi va shu bois kompleks tekshiruv hech qachon riskni nolga tushirmasligi bilan bo'g'liqdir. Venchur investorda maqsad riskni yo'qotish emas, balki "tanlab qabul qilish" bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlar venchur risklarini boshqarishda bosqichma-bosqich moliyalashtirishni eng muhim instrumentlardan biri sifatida ko'rsatadi. S.Wang ushbu mexanizmni risk va axloqiy xatar (moral hazard)ni kamaytiruvchi vosita sifatida izohlaydi. S.Dahiya va K.Ray natijalariga ko'ra, bosqichma-bosqich moliyalashtirish investor uchun "kutish va kuzatish" imkoniyatini yaratadi ya'ni agar dastlabki bosqich natijalari sust bo'lsa, investor keyingi moliyalashtirishni to'xtatishi yoki qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Bosqichma-bosqich moliyalashtirishning samaradorligi bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u kapitalni birdaniga emas, nazorat nuqtalari (milestones) asosida ajratgani uchun zarar miqyosini cheklaydi. Ikkinchidan, startap jamoasini intizomga undaydi, chunki keyingi raundlar natijalarga bog'lanadi. Uchinchidan, investor yangi ma'lumot kelib tushishi bilan qarorini yangilash imkoniga ega bo'ladi. Z.Fluk va boshqalar sindikatlash bilan birga qo'llanilgan bosqichma-bosqich moliyalashtiruvchi investor va tadbirkor o'rtasidagi "hold-up" muammolarini kamaytirib, sof joriy qiymat (NPV)ni oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bosqichma-bosqich moliyalashtirishning salbiy tomoni ham bor, haddan tashqari qisqa raundlar startapni doimiy investitsiyalarni jalb etish (fundraising) rejimida ushlab qolishi, jamoaning strategik fokusini susaytirishi va qisqa muddatli ko'rsatkichlarni bo'rttirishga undashi mumkin. K.Yung tadqiqoti aynan shu nozik jihatni ko'rsatadi. Demak, bosqichma-bosqich moliyalash samarali bo'lishi uchun nazorat nuqtalari puxta belgilanishi va monitoring sof byurokratiyaga aylanib ketmasligi kerak.



Sindikatlash, ya'ni bir nechta venchur investorlarning bir bitimda ishtiroki, risklarni bo'lishishning muhim mexanizmidir. Uning birinchi afzalligi kapitalning bir investor zimmasida to'planib qolmasligi. Ikkinchi afzalligi esa har bir investor o'z tarmog'i, ekspertizasi va monitoring resurslarini olib kiradi. Z.Fluk va boshqalar bu yondashuv keyingi bosqich moliyalashtirish bo'yicha majburiyatlarni mustahkamlashini ko'rsatadi.

Biroq sindikatlashning samaradorligi avtomatik emas. R.Nanda va M.Rods-Kropf sindikatlarda koordinatsiya friksiyalari paydo bo'lishi, qarorlar cho'zilishi va investorlar o'rtasida manfaatlar tafovuti kuchayishi mumkinligini ta'kidlaydi. J.Kang va hamkorlar esa sindikat investorlari geografik yoki tashkiliy jihatdan bir-biriga yaqinroq bo'lganda natijalar yaxshiroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, sindikatlashning samaradorligi "ko'p investor"ning o'zida emas, balki ularning koordinatsiya sifati va rol taqsimotiga bog'liq.

Venchur bitimlarda risk boshqaruvining eng nozik qatlami shartnoma dizaynidir. NVCA model hujjatlari amaliyotda keng qo'llanadigan standartlarni beradi. Bular likvidatsiya imtiyozi, ulush (kapital) kamayishiga qarshi himoya mexanizmi, investor huquqlarini himoya qilish qoidalari, kuzatuv kengashi tarkibi, axborot olish (monitoring) huquqi, mutanosib ravishda (birinchi bo'lib) investitsiya kiritish huquqi va boshqa bandlar bo'lib, ular investor manfaatini himoya qiladi. Ushbu instrumentlar seleksiya xatosidan ko'ra ko'proq keyingi bosqichdagi axloqiy va qiymatni qayta taqsimlash risklarini boshqaradi.

Masalan, likvidatsiya imtiyozi chiqish vaqtida investor uchun minimal qaytish himoyasini yaratadi. Ulush (kapital) kamayishiga qarshi himoya mexanizmi esa keyingi raundlar pastroq baholashda yopilganda ulush qiymatini qisman himoya qiladi. Investor huquqlarini himoya qilish qoidalari esa kompaniya muhim qarorlarni, masalan, yangi qimmatli qog'oz chiqarish, qarz olish, aktiv sotish yoki biznesni o'zgartirishni investor roziligisiz amalga oshirishini cheklaydi. Bularning samaradorligi shundaki, ular investorni faqat pasiv kapital beruvchi emas, balki qiymatni himoya qiluvchi sherik sifatida pozitsiyalaydi.

Ammo shartnomaviy himoyaning haddan tashqari kuchli bo'lishi startapning operatsion erkinligini cheklashi mumkin. Shu sababli samarali venchur shartnomasi himoya va moslashuvchanlik o'rtasida muvozanat topishi kerak. Aynan shu nuqtada venchur kapital bank kreditidan farq qiladi. Maqsad startapni xavfdan "izolyatsiya qilish" emas, balki boshqariladigan risk ostida o'sishni moliyalashtirishdir.

Venchur investorlar investitsiyadan keyin ham faol rol o'ynaydi. P.Gompers va boshqalar venchur investorlar bitimni yopgandan so'ng ham monitoring, mentorlik, strategik yo'naltirish va keyingi moliyalashtirish bo'yicha muhim vazifalarni bajarishini qayd etadi. Bu venchur risk boshqaruvining o'ziga xos xususiyati investor nafaqat nazorat qilishini, balki qiymat yaratishda ham ishtirok etishini anglatadi.

Monitoringning samaradorligi ikki ko'rsatkich orqali ko'rinadi. Birinchisi, muammolarni erta aniqlash. Ikkinchisi, tarmoq va tajriba orqali startapning muvaffaqiyat ehtimolini oshirish. Biroq monitoring haddan tashqari kuchaysa, tadbirkorning tashabbuskorligi pasayishi mumkin. Shu bois kengash faoliyatida ishtirok etish huquqi (board participation) eng samarali bo'lganda, u "mikro-boshqaruv" emas, balki strategik kuzatuv va yordam vazifasini bajaradi.

Fond darajasida venchur risklarini boshqarish startap darajasidagi nazorat bilan tugamaydi. Portfelning sektor, bosqich, geografiya va vaqt bo'yicha diversifikatsiyasi fondning umumiy tavakkal profilini pasaytiradi. E.Metrik va A.Yasuda VC fondlari yopiq muddatli sheriklik shaklida tashkil etilishi, boshqaruv haqi va mukofot ulushi (carried interest) orqali rag'batlantirilishi hamda qator shartnomaviy majburiyatlar bilan cheklanishini ko'rsatadi. Bu tuzilma fond menejerlari riskini cheklangan mas'uliyatli sherik (LP) manfaatlar bilan qisman uyg'unlashtiradi.

Bundan tashqari, "follow-on" investitsiyalar uchun rezerv kapital saqlash ham muhim. O'tkazilgan tahlil asosida venchur moliyalashtirishdagi asosiy mexanizmlarning samaradorligini quyidagicha umumlashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Venchur moliyalashtirish mexanizmlarning samaradorlik majmuasi

Mexanizm	Asosiy boshqariladigan risk	Kuchli tomoni	Cheklovi
Kompleks tekshiruv (<i>Due diligence</i>)	Seleksiya riski	Noto'g'ri loyihani erta aniqlaydi	Erta bosqichda ma'lumot yetishmaydi
Bosqichma-bosqich moliyalashtirish (<i>Staged financing</i>)	Axloqiy xatar (moral hazard), likvidlik riski	Kapitalni bosqichma-bosqich himoya qiladi	Qisqa muddatli manipulyatsiyani rag'batlantirishi mumkin
Sindikatlash (<i>Syndication</i>)	Konsentratsiya va ekspertiza riski	Riskni bo'ladi, bilim va tarmoq olib kiradi	Koordinatsiya friksiyalari tug'diradi
Shartnoma dizayni (<i>Contract design</i>)	Qiymatni qayta taqsimlash riski	Investor huquqlarini himoya qiladi	Ortiqcha qattqlik o'sishni sekinlashtirishi mumkin
Kengash orqali nazorat (<i>Board monitoring</i>)	Monitoring va agentlik riski	Erta signal va strategik yordam beradi	Mikro-boshqaruv xavfi bor

Diversifikatsiya	Portfel riski	Fond darajasida yo'qotishni yumshatadi	"G'olib hammasini oladi" (winner-takes-most) mantig'ini to'liq bartaraf etmaydi
Chiqishni rejalashtirish (Exit planning)	Likvidlik va monetizatsiya riski	Qaytish strategiyasini oldindan shakllantiradi	Tashqi bozor sharoitiga yuqori bog'liq

Jadvaldan ko'rinadiki, birorta instrument yakka holda yetarli emas. Venchur risk boshqaruvining samaradorligi mexanizmlarning kombinatsiyalangan qo'llanishiga bog'liq. Shundan kelib chiqqan holatda "risk-instrument-samaradorlik" modeli ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval. "Risk-instrument-samaradorlik" modeli

Risk	Instrument	Samaradorlik
Seleksiya riski	Kompleks tekshiruv va jamoa baholashi	Noto'g'ri investitsiya ehtimolini kamaytirish
Agentlik riski	Bosqichma-bosqich moliyalashtirish va kuzatuv kengashida vakillik huquqi hamda cheklovchi shartnomaviy majburiyatlar	Intizom va kuzatuvni kuchaytirish
Konsentratsiya riski	Sindikatlash va diversifikatsiya	Zarar ta'sirini bo'lishish
Likvidlik va chiqish riski	Zaxira kapital va chiqishni rejalashtirish	Qaytish imkoniyatini barqarorlashtirish

Ushbu modelning asosiy falsafasi shundan iboratki, venchur kapitalda samaradorlik "riskni maksimal pasaytirish" bilan emas, balki "riskni boshqariladigan va qiymat yaratuvchi darajaga olib kelish" bilan o'lchanadi. Venchur investor uchun juda past risk ko'pincha juda past innovatsion salohiyatni ham anglatadi. Shu sababli samarali boshqaruv yuqori o'sish imkoniyati va kapital himoyasi o'rtasidagi optimal nuqtani topa bilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Venchur moliyalashtirish jarayonida risklarni boshqarish mexanizmlari ko'p qatlamli va o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi. Venchur kapital bozori yuqori noaniqlik, agentlik muammolari va chiqish noaniqligi bilan tavsiflangani sababli, investorlar riskni banklar kabi chetlab o'tmaydi, aksincha, uni saralash, bo'lib taqsimlash, shartnoma orqali cheklash va faol monitoring yordamida boshqaradi. Ilmiy adabiyotlar bosqichma-bosqich moliyalashtirish, sindikatlash, shartnomaviy nazorat va Kengash orqali nazoratning markaziy rolini tasdiqlaydi.

Venchur moliyalashtirishdagi risk boshqaruvi samaradorligi alohida instrumentning kuchida emas, balki ularning moslashtirilgan kombinatsiyasida namoyon bo'ladi. Kompleks tekshiruv seleksiya xatolarini kamaytiradi, bosqichma-bosqich moliyalashtirish yangi axborot kelganda qarorni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi, sindikatlash riskni va ekspertizani taqsimlaydi, investitsiya bitimining asosiy shartlari bayonnomasi (term sheet) bandlari esa qiymatni himoya qiladi. Biroq ushbu instrumentlar noto'g'ri qo'llansa, yangi risklar ya'ni koordinatsiya muammosi, qisqa muddatli manipulyatsiya yoki ortiqcha nazorat kabi xavflar paydo bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi tahlil va ilmiy mulohazalar asosida quyidagi taklif hamda tavsiyalarning amalga oshirilishi venchur moliyalashtirish jarayonidagi risklarni samarali boshqarish imkoniyatini ta'minlaydi.

1. Venchur bitimlarida risklarni "bir martalik tekshiruv" emas, butun sikl bo'ylab boshqarish zarur. Kompleks tekshiruv, investitsiya bitimining asosiy shartlari bayonnomasi, monitoring va chiqishni rejalashtirish bir-biridan ajralgan emas, yagona tizim sifatida tashkil etilishi kerak.

2. Bosqichma-bosqich moliyalashtirish nazorat nuqtalari bilan aniq bog'lanishi lozim. Nazorat nuqalari noaniq yoki faqat qisqa muddatli metrikalarga qurilsa, startapni manipulyatsiyaga undashi mumkin.

3. Sindikatlashda rol va javobgarliklar oldindan aniq taqsimlanishi kerak. Yetakchi investor, monitoring vazifalari va keyingi raundlar bo'yicha mexanizmlar oldindan kelishib olinmasa, koordinatsiya xarajatlari oshadi.

4. Shartnomaviy himoya startapning innovatsion moslashuvchanligini to'smasligi kerak. Himoya qoidalari va investor huquqlari kuchli bo'lishi, ammo operatsion moslashuv uchun yetarli erkinlik qoldirishi zarur.

5. Fond darajasida navbatdagi investitsiya rezervlar va chiqish ssenariylari oldindan rejalashtirilishi lozim. Bozor sharoiti o'zgariganda keyingi raundlar va chiqish imkoniyatlari sustlashishi mumkinligi sababli, likvidlik strategiyasi dastlabki investitsiya qarorining bir qismi bo'lishi kerak.

6. Venture bozorini rivojlantirish siyosatida erta bosqichdagi ma'lumot nomukammalligi va kengayish (scale-up) risklari alohida e'tiborga olinishi kerak.



Yakuniy xulosa shuki, venchur moliyalashtirishdagi eng samarali risk boshqaruvi riskni to'liq yo'qotishga emas, balki innovatsion o'sishni saqlagan holda boshqariladigan tavakkal darajasini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Aynan shunda venchur kapital o'zining iqtisodiy vazifasini - yuqori xavfli, lekin yuqori ijtimoiy va iqtisodiy qaytimga ega innovatsion firmalarni moliyalashtirish funksiyasini to'liq bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fluck Z., Garrison K., Myers S. Venture Capital Contracting and Syndication. NBER Working Paper No. 11624. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2005.
2. Wang S., Zhou H. Staged financing in venture capital: moral hazard and risks // Journal of Corporate Finance. 2004.
3. Tian X. The causes and consequences of venture capital stage financing // Journal of Financial Economics. 2011.
4. Dahiya S., Ray K. Staged investments in entrepreneurial financing // Journal of Corporate Finance. 2012.
5. Yung C. Entrepreneurial manipulation with staged financing // Journal of Economic Behavior & Organization. 2019.
6. Gompers P., Gornall W., Kaplan S., Strebulaev I. How Do Venture Capitalists Make Decisions? NBER Working Paper No. 22587. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2016.
7. Kaplan S. N., Strömberg P. Evidence from Venture Capitalist Analyses. NBER Working Paper No. 8764. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2002.
8. Metrick A., Yasuda A. Venture Capital and Other Private Equity: A Survey. NBER Working Paper No. 16652. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2010.
9. Da Rin M., Hellmann T., Puri M. A survey of venture capital research. NBER Working Paper No. 17523. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2011.
10. Nanda R., Rhodes-Kropf M. Coordination Frictions in Venture Capital Syndicates. NBER Working Paper No. 24517. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2018.
11. Kang J. K., et al. Venture Capital Coordination in Syndicates, Corporate Governance and Startup Outcomes // Journal of Corporate Finance. 2022.
12. NVCA. Model Legal Documents. National Venture Capital Association.
13. NVCA. Model Term Sheet. National Venture Capital Association.
14. OECD. Policy Lessons from Financing Innovative Firms. Paris: OECD Publishing.
15. PitchBook; NVCA. Q4 2024 PitchBook–NVCA Venture Monitor. 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100